

## **IX** 9Belgilar

**Jamoatinga nima  
uchun qurbonlik  
berishim kerak?**



**Jeymi  
Dunlop**

**Jamoatga Doir Savollar**

## Jamoatga doir savollar to'plami haqidagi ijobiy fikrlar

“Masihiylar juda jiddiy savollarga duch kelishadi. Muqaddas Bitiklar qanday qilib jamoatni barpo etadi, sajdani tartibga keltiradi, xizmatni tashkil qiladi va kalomdagi yo'lboshchilikni ta'riflaydi? Bu “9Belgilar”ga tegishli ushbu yangi to'plamda aniq, diqqat bilan va qiziqarli tarzda javob berilgan savollardan bir nechta misollaridir. Men bu xizmat uchun va uning ko'plab sodiq jamoatlarga favqulodda sog'lom va umid beruvchi ta'siri uchun minnatdorman. Bu to'plamni bajonidil tavsiya qilaman.”

**R. Albert Moller** (R. Albert Mohler Jr.),  
Janubiy baptist ilohiyot seminariyasi prezidenti

“Samimiy savollar mulohaza bilan javob berishga arziydi. Agar siz bu savollarga javob berishni nimadan boshlashni bilmasangiz, bu to'plam hovuzga sakrash uchun trampolin sifatida sizga xizmat qilsin. Bu kichik kitoblar qiziqarli darajada maqsadli va bitta do'st yoki yuzlab do'stlar bilan birga o'qish uchun ajoyib tarzda mos keladi.”

**Gloriya Furman** (Gloria Furman),  
*Vazifaga ega onalik xizmati va  
Cho'ponning xotini* kitoblari muallifi

“Cho’pon sifatida menga ko’p savollar berishadi. Menga xushxabarni tushunishni istayotgan imonsizlar, endi hayotida nima qilishni bilmayotgan yangi imonlilar hamda imonli oila a’zolari, qarindoshlari, do’stlari, qo’shnilari va hamkasblari savollariga javob olishni istayotgan yetuklikka intilayotgan imonlilar murojaat qilishadi. Aynan shunday paytlarda ularning savollariga qisqacha javob bera oladigan va keyingi o’rganish uchun to’g’ri yo’nalish ko’rsata oladigan kitobim bo’lishini istardim. Jamoatga doir savollar to’plami ana shu imkoniyatni taqdim qiladi. Har bir risolada keltirilgan masala kalomga asoslangan, ixcham va amaliy tarzda yoritilgan. To’plam Jamoat savollari deb nomlansa bo’ladi, lekin u “Jamoat javoblari” deb atalishi ham mumkin edi. Men muntazam ravishda ularning bir nechtasini tanlab, boshqalar bilan bo’lishishmoqchiman. Sizga ham shunday qilishni tavsiya qilaman.”

**Xuan R. Sanches** (Juan R. Sanchez),  
“High Pointe” nomli baptist  
jamoatida katta cho’pon,  
Austin shahri, Texas

“Biz, masihiylar qalin va qimmat kitoblarni varaqlamasdan turib, jamoatdagi masihiy hayot haqida umumiy savollarimizga ishonchli javoblarni qayerdan topa olamiz? Jamoatga doir savollar to’plami bizning ehtiyojlarimizni kalomga asoslangan, chuqur o’ylangan va amaliy bo’lgan javoblar bilan qondiradi. Cho’ponlar uchun bu to’plam jamoat a’zolarini chuqur donolik va mustahkam birlik sari yo’naltirish uchun ishonchli manba bo’lib xizmat qiladi.”

**Rey Ortlund** (Ray Ortlund),  
Qayta tiklash xizmatlari prezidenti



**Jamoatimga nima  
uchun qurbonlik  
berishim kerak?**



# Jamoatga Doir Savollar

*Xudo hammani sevadimi?*

**Matt Mak Kulloh**

*Menga ustozlik qiladigan odamni qanday topsam bo'ladi?*

**J. Garrett Kell**

*Muqaddas Kitobni o'qishdan qanday qilib ko'proq zavqlana olaman?*

**Jeremy Kimbl**

*Boshqacha siyosiy qarashga ega bo'lgan jamoat a'zolarini qanday seva olaman?*

**Jonatan Liman va Andy Naselli**

*Jamoatimda qanday xizmat qilishim mumkin?*

**Mettyu Emadi**

*Jamoatimiz qanday qilib sadoqatli cho'ponni topa olishi mumkin?*

**Mark Dever**

*Ayollar mahalliy jamoatda qanday qilib ruhan o'sishlari mumkin?*

**Keri Folmar**

*Jamoatdagi intizomiy chorani qo'llash sevgi amalimi?*

**Jonatan Liman**

*Ibodat qilishni xohlamasam-chi?*

**Jon Onvuchekva**

*Jamoatga borishni xohlamasam-chi?*

**Gunner Gundersen**

*Xushxabarchilik faoliyatimdan qoniqmasdan, umidsizlikka tushsam-chi?*

**Isaak Adams**

*Hozir men masihiyman, nima qilishim kerak?*

**Sam Emadi**

*Rabbimiz Kechligi nima uchun bu qadar muhim?*

**Aubrey Sequeira**



*Nima uchun cho'mdirilishim kerak?*

**Bobby Jamieson**

*Jamoatimga nima uchun qurbonlik berishim kerak?*

**Jeymi Dunlop**

*Nima uchun jamoatga qo'shilishim kerak?*

**Mark Dever**

*Jamoatning vazifasi nima?*

**Jonatan Liman**

*Men najotga erishganimga qanday amin bo'lishim mumkin?*

**Jeremy Pierre**

*Ayol kishi cho'pon bo'lishi mumkinmi?*

**Greg Gilbert**

*Jamoatga qatnamaydigan a'zolar borasida nima qilishimiz mumkin?*

**Aleks Dyuk**

*Men xizmatga da'vat etilganmanmi?*

**Brad Vhiler**

*Xalqaro elchilik xizmatini qanday qo'llab-quvvatlashim mumkin?*

**Mark Kollins**

*Xushxabar sog'lik va farovonlik va'da qiladimi?*

**Shon DiMars**

*Jamoatni kim boshqaradi?*

**Sam Emadi**

*Diakonlar (xizmatchilar) nima qilishadi?*

**Xuan Sanchez**

*Men jamoatda nimani izlashim kerak?*

**Aleks Dyuk**

*Do'zax haqqoniyimi?*

**Deyn Ortlund**

*Men nimaga ishonishim ahamiyatga egami?*

**Samuel James**

# Jamoatinga nima uchun qurbonlik berishim kerak?

Muallif: Jeymi Dunlop  
[Jamie Dunlop]

**IX** 9Marks

*Jamoatimga nima uchun qurbonlik berishim kerak?*

*Jeymi Dunlop tomonidan*

Mualliflik huquqi © 2023 yil

Marvarid Xizmatlari

*Why Should I Give to My Church?* by Jamie Dunlop

Copyright © 2021 by "9Marks"

Crossway,

1300 Crescent ko'chasi,

Uiton shahri, Illinoys shtati 60187 da chop etilgan.

Barcha huquqlar himoyalangan. Bu nashrning biror qismi qayta chiqarilishi, qidirish tizimida saqlanishi yoki boshqa shaklda, boshqa yo'l bilan, elektron, mexanik, fotonusxa, ko'chirib olish yoki boshqa usul bilan nashriyotni oldindan ogohlantirmay yetkazilishi mumkin emas. AQShning mualliflik huquqida ko'zda tutilgan qonunlari bundan mustasnodir. Crossway AQShda ro'yxatdan o'tgan savdo belgisi hisoblanadi.

Originally published in English by Crossway with all International rights owned by Crossway and 9Marks

This edition published by arrangement with 9Marks.

All rights reserved.

Muqova dizayni: Jordan Singer

First printing 2021

AQShda chop etilgan

Muqaddas Bitiklardan parchalar 2023 Muqaddas Yozuvning So'zma-So'z

Tarjimasidan [MY] olingan. Ruxsat bilan ishlatiladi. Barcha huquqlar himoyalangan.

Muqaddas Bitiklardan olingan parchalardagi ta'kidlar muallif tomonidan kiritilgan.

9Marks ISBN: 979-8-89218-043-6

Har kim qayg‘u yoki majburiyat bilan emas,  
balki yurak xohishi bilan bersin, chunki Xudo  
quvonib beruvchini sevadi. Sizlar hamisha  
hamma narsada har qanday qanoatga ega bo‘lib,  
har qanday xayrli ishlarga boy bo‘lishingiz uchun  
Xudo sizlarni har qanday inoyati bilan boy  
qilishga qodirdir.

2-Korinfliklar 9:7-8



## Xudo sizning pulingizga muhtoj emas (Lekin sizning qurbonlik qilishingiz Unga xush yoqadi)

*SAVOL: NIMA UCHUN QURBONLIK BERISH KERAK?*

Mahalliy jamoatingizga nima uchun qurbonlik qilishingiz kerak? Bu savolning ikkita asosiy sababi bor. Birinchidan, jamiyatda xayr-ehson qilish har doimgidek ommabop bo'lib ko'rinsa-da, *jamoat* uchun qurbonlik qilish urfdan chiqib ketmoqda. Qo'shma Shtatlarda, hech bo'lmaganda, so'nggi o'ttiz yil ichida jamoatlarga ajratilgan xayriya ulushi 53 foizdan 32 foizga kamaydi.<sup>1</sup> Buyuk Tushkunlik (1929-1939 yilgacha davom etgan iqtisodiy inqiroz) davrida o'rtahol masihiy o'z daromadining 3,3 foizini jamoatiga bergan, buni hozirgi kun bilan taqoslaydigan bo'lsak, hozirda bu 2,5 foizga kamaygan.<sup>2</sup>

Ikkinchidan, bu muhim savolga Muqaddas Kitob biz kutganimizdan mutlaqo farqli ravishda javob beradi. Qancha miqdorda qurbonlik qilish kerak, qurbonlikni kimga berish kerak va uni

qanday berish kerakligi kabi boshqa savollarga javob beradigan bo'lsak, bu “nima uchun” degan savolga javob berish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu kitobning aksariyat qismi “nima uchun” degan savolga javob berishga qaratilgan. Ushbu asosiy savolga javob berib bo'lgach, jamoatingiz qurbonlik qilishda qanday rol o'ynashi kerakligini ko'rib chiqamiz. So'nggida esa, biz sizda bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan savollarga to'xtalib o'tamiz.

*MUQADDAS KITOB:*

*TUBDAN FARQ QILADIGAN YONDASHUV*

Ushbu “nima uchun” degan savolga javob berish uchun, biz Muqaddas Kitobning berish haqidagi asosi va ko'pchilikning xayriya ishlariga pul ajratish sabablari o'rtasidagi farqni ko'rib chiqishimiz kerak. Odatda, odamlar nima uchun qurbonlik qilishadi? Xayolimga ikkita so'z keladi: ehtiyoj va majburiyat.

- Ehtiyoj: biz tabiiy ofatdan keyin yordam berish yoki inson qadami yetmagan shaharda xushxabarni baham ko'rish kabi yaxshi ishlar qilinishi kerakligi uchun qurbonlik qilamiz.
- Majburiyat: qurbonlik qilishimiz kerak bo'lgani uchun beramiz. Bu bizning qanchalar marhamatlanganimizni ko'rsatadigan to'g'ri javobdir.

Shunga qaramay, Yangi Ahdda qurbonlik qilishga undaydigan turli sabablar keltirilgan. Shulardan ikkitasiga qisqagina to'xtalib o'tamiz.

Birinchidan, 1-Korinfliklarga 13:3 da shunday deyilgan: "Agar bor mol-mulkimni tarqatib yuborsam . . . lekin sevgiga ega bo'lmasam, bundan menga hech qanday foyda yo'qdir." Qanday ajoyib! Xudoning nazarida, hadyaning qadr-qimmatini uning qanchalik zarurligi uchun emas, balki men *sevgi* bilan qurbonlik qilishim yoki qilmasligimga bog'liq. Noto'g'ri sabablar bilan qurbonlik qilsangiz, ehtiyojning qanchalar muhimligidan qat'iy nazar, bu ishingiz hech qanday qadr-qimmatga ega emas.

Ikkinchidan, 2-Korinfliklarga 9:7 da "Xudo quvonib beruvchini sevadi" deb yozilgan. Rostdanmi? Chek yozganingizda, Qizil Xoch jamiyati sizning xohishlaringizga e'tibor beradimi? Siyosatchilar ularning siyosiy harakatlarini *nima sababdan* qo'llab-quvvatlayotganingizga e'tibor berishadimi? Holbuki, *mamnuniyat* bilan beruvchi inson Xudoni xursand qiladi. Bu esa siz qurbonlik qilishingiz kerakligining mutlaqo aksidir.

Yangi Ahdning qurbonlik qilish haqidagi ta'limotida, majburiyat va ehtiyoj unchalik muhim emas.<sup>3</sup> Aksincha, biz imkoniyat va quvonch, Xudoning ulug'vorligi va mukofoti kabi narsalarga guvoh bo'lamiz. Nega shunday ekan?



## MAJBURIYAT MUAMMOSI

Keling, bir misol keltiray. Turmush o'rtog'im ajoyib pazanda. Albatta, maktab yoshidagi uchta farzandim har doim ham uni ajoyib pazanda deb hisoblashmaydi. Ba'zan ular nolib ham qo'yishadi. Tasavvur qiling-a: bir kuni ular kechki ovqatning qanchalik mazali ekanligi haqida to'liqlanib gapirib, uni juda ochiqib yeyishadi. Ertasi kuni esa ularga ovqat yoqmaydi, lekin baribir nolimasdan yeyishadi. Bu ikki kundan qaysi biri turmush o'rtog'imning pazandalik mahoratini ko'rsatyapti? Birinchisi, albatta. Ikkinchi kun faqatgina bolalarim va ularning qanchalik itoatkorligini ta'riflaydi.

Xuddi shunday, majburiyatdan voz kechib chin dildan qurbonlik qilish, *bizning* qanchalik itoatkor ekanligimizni ko'klarga ko'taradi. Lekin mamnuniyat bilan qurbonlik qilish (yoki "quvonch" bilan [2-Korinfliklar 9:7]) Xudoni ulug'laydi.<sup>4</sup> Masihga ergashish uchun pulimizni mamnuniyat bilan bersak, bu Uning qanchalik yaxshi va hurmatga loyiq ekanligini ko'rsatadi.

Shuni esingizdan chiqarmang, Xudo bizning qurbonligimizga umuman *muhtoj emas*. Sanolar 49:12 da Xudo shunday deydi: "Agar Men och qolganimda edi, senga aytmas edim, chunki dunyo va uni to'ldirib turgan hamma narsa Menikidir." *Hamma narsa Xudonikidir*. Hattoki biz "unga

ber yapmiz” deb o'ylagan pul ham allaqachon unga tegishli. Pul yetishmovchiligi hech qachon Xudoning ta'bini xira qilmaydi.

Shunday ekan, nega Xudo qurbonlik qilishimiz haqida qayg'uradi? U pulimizni emas, balki qalbimizni xohlagani uchun qurbonlik qilishimizni istaydi. Shuning uchun ham Xudo mamnuniyat bilan beruvchi insonni xohlaydi.

### *XURSANDCHILIK BILAN QURBONLIK BERISH*

Amazon kompaniyasini asoschisi Jef Bezos bilan Amazonni ishga tushirganidan bir yil o'tib uchrashganim esimda. Agar siz ushbu risolani dunyoning boshqa burchagida o'qiyotgan bo'lsangiz, Alibabaning asoschisi Jek Ma yoki Markado Liberning paydo bo'lishiga sababchi Markos Galperin bilan uchrashish haqida o'ylab ko'ring. O'sha paytda u katta g'oyaga ega bo'lsa-da, taniqli inson emas edi. Keling endi, tasavvur qilaylik (afsuski, bu faqat bizning tasavvurimizda xolos) u mendan kompaniyaning bir qismi evaziga bir necha ming dollar so'radi. O'tmishga nazar tashlab, men bu ayriboshlash orqali unga yaxshilik qildim deb o'ylamagan bo'lar edim, shunday emasmi? Hozirga kelib, bu ulush millionlab dollarga teng bo'lar edi. Bunga esa, men o'zim duch kelgan eng katta va eng ajoyib imkoniyat sifatida qaragan bo'lar edim.

Xudo sizni jamoatingizga *mana shunday* munosabatda bo'lishga undaydi. O'sha hayajon,

o'sha quvonch, o'sha intiqib kutish va yana ko'plab narsalar qurbonlik qilishning asosi hisoblanadi. Biz qurbonlik qilishga majburiyat emas, balki imkoniyat sifatida qarashga harakat qilishimiz kerak. Televizorda "bizning xizmatimiz uchun qurbonlik qilinglar va Xudo sizni boy qiladi" deguvchi va Muqaddas Kitobdagi Xudoning ahdini noto'g'ri talqin qiluvchi hamda oyoq osti qiluvchi ba'zi bir diniy lo'ttibozlarning yo'lini tutmasligimiz kerak. Yo'q, biz bu dunyoda ham, oxiratda ham eng yaxshisiga ega bo'lishimiz uchun qurbonlik qilamiz.

Buning sabablarini ko'rib chiqish uchun biz keyingi uchta bo'limda "*Nima uchun qurbonlik qilishimiz kerak?*" degan savolga javob beramiz. Agar ularni xuddi shu savolga bergan samimiy javoblaringiz bilan solishtirsangiz, ushbu bo'limlar siz uchun ancha foydali bo'ladi. Shunday qilib, quyidagilarga javob berishga biroz vaqt ajrating (pastdan javob qidirmang!) va jamoatingizga qurbonlik qilishning uchta asosiy sabablarini yozib chiqing. Keyingi uchta bo'lim sizga foydali bo'lishi uchun quyidagi savollarga javob berishga rostan ham biroz vaqt ajrating.

Jamoatimga qurbonlik qilishimning sabablari:

1. \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## **NEGA QURBONLIK QILISH KERAK?**

### **QALBINGIZ UCHUN**

#### *QO'LDAN PUL KETGANDA*

Cho'pon bo'lishimdan bir necha yil oldin, biznes safari bilan Londonga bordim. U yerdagi oxirgi kechamda, o'z yurtimdagi (ya'ni Amerika Qo'shma Shtatlaridagi) jamoatinga qo'ng'iroq qilib, telefonda yig'ilish o'tkazishga qaror qildim - va bu telefon qo'ng'irog'i uzoq, olti soatlik yig'ilishga aylandi. Ertasi kuni tongda, men uchun esda qolarli ikkita voqea sodir bo'ldi. Birinchisi, ish beruvchim menga katta miqdorda bonus (rag'bat puli) berishi haqida xabar topdim, bu xabarni eshitishim bilanoq, bonusni qanday sarflash haqida rejalar tuza boshladim. Qanchasini sarflashim kerak? Qanchasini berishim kerak? Sarflash yo'llari haqida qanchalik ko'p o'ylaganim sari, bermoqchi bo'lgan ulushimning miqdori shunchalik kamayib borardi.

Ikkinchisi, mehmonxonamdan chiqib ketayotganimda, jamoat yig'ilishiga qilgan, bepul deb o'ylagan telefon qo'ng'irog'im, aslida bepul emasligini va telefon qo'ng'irog'im uchun har daqiqasiga 10 funt sterling to'lashim kerakligidan xabar topdim. Matematik yo'l bilan hisoblab chiqilganida bu minglab dollar bo'ladi! Rabbiyning bunaqa hazilkashligini kim bilibdi deysiz? U menga katta miqdorda pul berdi, va men darhol bu pulni qanday sarflash haqida o'ylab turganimda, uni mendan olib qo'ydi.

Hikmatlar 23:4–5 oyatlarida boylikning o‘tkinchi tabiati tasvirlangan va bu tavsif judayam ajoyib misoldir.

Boy bo‘lay deb o‘zingni  
darmoningni quritma,  
bu fikringni bas qil.

Unga ko‘zlarini tikasan va u mana yo‘q,  
zero u o‘ziga qanot yasab,  
burgutdek osmonga uchib ketadi.

Qalbingizni shunday narsaga berib qo‘ymang!  
Keyinchalik o‘ylab qaragam, bu mening foydamga  
bo‘lgan ekan. O‘shanda birdaniga, bonusimning  
“baxt” tuzog‘iga tushib qolganimni angladim.

Yaxshiyamki, mehmonxona menejeri bilan  
kelishib olib, telefon to‘lovimni bir necha dollarga  
kamaytira oldim. Olgan bonusimni jamoatimga va  
uning xizmatiga berdim. Xudo menga, bu pullar  
Uniki va ularni vaqtinchalik boshqarishimni  
eslatdi. Bu tushuncha meni yuragimdagi pulning  
hukmronligidan xalos etdi va saxiy bo‘lish  
quvonchini tuydim.

#### *QALBIMIZ XAZINAMIZGA ERGASHADI*

Isoning o‘zi bizga xuddi shunday degan. “Ammo  
osmonda o‘zingizga . . . xazinalarni to‘planglar.  
Chunki sizning xazinangiz qayerda bo‘lsa, yuragingiz  
ham o‘sha yerda bo‘ladi” (Matto 6:20–21).

Yuragimiz tabiiy ravishda xazinamizga ergashadi. Agar siz Nayk kompaniyasining aksiyalarini (qimmatbaho qog'ozlar) sotib olsangiz, to'satdan sizda Nayk qanday ishlashiga qiziqish uyg'onadi. Agar xazinangizning katta qismi sizni samoda kutayotganini anglagan holda qurbonlik qilib hayot kechirsangiz yuragingiz o'sha yerda bo'ladi.

Muqaddas Kitob samoda xazina yig'ish kerakligini aytadi. Bu nega qurbonlik qilishimiz kerakligini tushuntirib beradigan asosiy dalillaridan biri: bu qalbimizni bu dunyo va undagi narsalarga bog'lanib qolishidan himoya qiladi.

Aslida, yurak va xazina o'rtasidagi bu aloqa ikki yo'nalishda harakatlanadi. Yuragingiz xazinangizga *ergashadi*. Ammo bundan tashqari, qalbingizning holati xazinangizni *namoyon qiladi*. Agar masihiy bo'lsangiz shunday yashang-ki, agar jannat xomxayol bo'lib chiqadigan bo'lsa, butun harakatlaringiz behuda ketgan bo'lsin (1-Korinfliklar 15:19). Sizning burchingiz faqatgina bir narsaga ishonishdir: Isoning va'dalariga. Buni anglash uchun esa yuragingizga nazar soling va qanchalik yaxshi eplayotganligingizni bilib oling.

Jannatga qanchalik intilasiz? *Bu* dunyoning vasvasalariga-chi? Matto kitobining 6-bobi termometr sifatida hayotingizning haroratini o'lchaydi.

Bordi-yu yuragingiz bu dunyoning narsalariga to'lib toshganini bilib qolsangiz nima qilasiz? Bu

narsalardan xolos bo'ling. Xazinangizni samoga qo'ying, shunda yuragingiz unga ergashadi. Matto 6-bob termostat sifatida, mehr-muhabbatingizning haroratini *sozlaydi*.

#### QURBONLIK QILISH YURAGINGIZ HAQIDA NIMA DEYDI?

Xudo Unga chin yurakdan qurbonlik qilishingizni istaydi. U sizning istaklaringiz, orzularingiz, mehr-muhabbatingiz va niyatlaringiz, umidsizlikka tushib yo'q bo'lib ketadigan bu dunyoga emas, balki *Unga va Uning va'dalariga* asoslanishini xohlaydi. Xudoyimizning qanchalar g'amxo'r va mehribonligini ko'ryapsizmi?

Shunday ekan, biroz vaqt ajratib quyidagi savollarga javob bering. Javoblaringizni berilgan joyga yozib qo'ying:

Odatda nima haqida xayol surasiz?

Yolg'iz qolganingizda sizni qanday qo'rquvlar qurshab oladi?

O'z oldingizga qanday maqsadlar qo'yasiz?

Qaysi xatolaringizdan ko'proq afsuslanasiz?

Ko'pincha nima haqida gaplashasiz?

Bu javoblarga ko'ra, xazinangiz qayerda ekan?



## XUDONING AJOYIB SEVGISI

Xudoyimiz bularning barchasi haqida qayg'urayotgani qanday ajoyib-a! Koinotni yaratib uni barcha narsalar bilan ta'minlab qo'ygan, qit'alarni, sayyoralarni, yulduzlar turkumini, galaktikalarni, vaqtni va abadiyatni boshqaradigan Xudo, *sizning* nimalar bilan mashg'ulligingiz va bundan tashqari, *nima uchun* bular bilan bandligingiz haqida qayg'uradi. U sizni sevgani uchun, qilayotgan ishlaringiz haqida qayg'uradi. Xudo faqat Undan shodlanishingizni istaydi.

Shunday ekan, Xudo sizga ishonib topshirgan manbalarni sahiylik bilan ishlating. Qalbingiz uchun shunday qilishingiz kerak.

## **NEGA QURBONLIK QILISH KERAK? MUKOFOTLANISHINGIZ UCHUN**

### *PAVLUSNING ANTIQA MINNATDORCHILIK XATI*

Injildagi Filippiliklarga kitobi, qisman, Pavlusning Filippidagi jamoatga moliyaviy yordam uchun yozgan minnatdorchilik maktubidir. Albatta, minnatdorchilikni ta'kidlash orqali Pavlus ulardan qurbonlik qilishda davom etishlarini so'ragan. Bu esa, Pavlusning Filippiliklarga maktubining oxiridagi so'zlarini anchagina kutilmagan holga keltiradi.

Men buni muhtoj bo'lganim uchun  
gapirmayapman, chunki menda bori

bilan qanoatlanishga o'rganib qoldim.  
... Meni qo'llab-quvvatlayotgan Iso  
Masihda men *hamma narsa* qila olaman  
(Filippiliklar 4:11, 13).

Pavlus unda *hech qanday muhtojlik* yo'qligini ta'kidlaydi! Shunga qaramay, Pavlus o'zi uchun emas, balki ular o'zlarining foydasi uchun qurbonlik qilganlaridan minnatdor edi.

Men hadyani izlamayapman, lekin sizlarning hisobingizga ko'payadigan hosilni izlayapman (Filippiliklar 4:17).

Filippi jamoatidagilar berish orqali nimagadir ega bo'ladilar, Pavlus shuning uchun ularning qurbonlik qilishlarini xohlaydi. Iso Matto kitobining 6-bobida aytganidek, bu hayotda qilgan ba'zi narsalarimiz samoviy xazinaga aylanadi. Muqaddas Kitobda nima uchun qurbonlik qilish kerakligining ikkinchi asosiy sababi keltirilgan: abadiy mukofot uchun. Aslida, agar pulga tegishli qarorlaringiz yuqoridagi sababga asoslanmagan bo'lsa, sizning moliyaviy tamoyilingiz uzoqqa yetib bormaydi.

Afsuski, farovonlik xushxabari dunyodagi masihiy jamoatlariga juda katta talofat yetkazgani uchun bir muddat to'xtab, Muqaddas Bitikdagi ahd judayam haqiqiy va *ruhiy* xususiyatga ega ekanligiga alohida urg'u berib o'tishim kerak. Iso Matto

kitobining 6-bobida aytganidek, “Ammo *osmonda* o‘zingizga . . . xazinalarni to‘planglar” (20-oyat). Agar siz jamoatingizga ko‘proq qurbonlik qilsangiz, Xudo bugungi kunda sizning sof xazinangizni oshirishni tanlashi *mumkin*. Ammo u hech qachon buni va‘da qilmagan. Agar sizga qandaydir masihiy o‘qituvchi, uning xizmatiga qurbonlik qilsangiz buning evaziga sizga yaxshiroq nikoh, bank hisobingizda yaxshigina pul, va eng zo‘r doktor qabulini va‘da qilsa yoki ishora qilsa u haqiqiy masihiy o‘qituvchi emas.<sup>5</sup>

YO‘QOLIB BORAYOTGAN NARSANI ABADIY  
QOLADIGANIGA ALMASHTIRING

Bir necha yil oldin Hindiston hukumati barcha besh yuz va bir ming rupiylik qog‘oz pullar qonuniy kuchga ega emasligi to‘g‘risida ma‘lum qildi va bu xabar e‘lon qilinganidan *to‘rt soat* o‘tib kuchga kirdi. Bu esa tushlik vaqtdan keyin hamyoningizdagi barcha o‘n va yigirma dollarlik kupyuralarning keraksiz ekanligini aytish bilan barobardir. Tez orada qadrsiz bo‘ladigan kupyuralarni nima qilgan bo‘lardingiz? Ehtimol, ularni yaroqlisiga aylantirishni xohlagan bo‘lardingiz, shunday emasmi?

Qarang, bu misol masihiylar hayotining qanchalar ajoyib tasvirlaydi! Siz uni o‘zingiz bilan olib qololmaysiz. Lekin, ko‘pchilik aytganidek, uni oldindan jo‘natishingiz mumkin. Hindistondagi o‘sha savdogarlar tez orada qadrsiz bo‘lib qoladigan valyutani ayirboshlash bilan band bo‘lgani kabi,

siz ham dunyoviy boylikni xushxabar ishini jadallashtirish uchun yo'qolmaydigan xazinaga almashtira olasiz. *Bugungi kunda* pulingizni qanday sarflashingiz sizga *abadiyatda* o'z ta'sirini ko'rsatadi.

#### *PULINGIZNI AQL BILAN ISHLATING*

Bu haqiqat pulga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ammo, afsuski, bunday yondashuv hammaga ham to'g'ri kelavermaydi. Ba'zilarimiz pulimiz ko'p bo'lmagani uchun, uni ataylab uncha ehtiyotlamaymiz. Ammo Muqaddas Kitobdagi qurbonlik qilgan quyidagi qahramonlar haqida o'ylab ko'raylik: muqaddas chodir uchun qurbonlik qilgan misrlik ozod qullar (Chiqish 36); o'ta kambag'al bo'lishlariga qaramay xayr-ehson qilgan Makedoniyalik masihiylar (2-Korinfliklarga 8); bor-budini berib Xudoning O'g'lidan maqtov olgan Mark kitobining 12-bobidagi kambag'al beva ayol. Muqaddas Kitobda keltirilgan qurbonlik qilgan qahramonlar *juda ham kambag'al* edilardir. Qizig'i shundaki, 1-Timotiyga 6 da, Pavlus boylarga murojaat qilganda, ular "ezgu ishlar qilsinlar, xayrli ishlarda boyisinlar, saxiy va hammaga ulfat bo'lsinlar" deb aytadi (18-oyat.) Qandaydir bir iqtisodchi kambag'allarning hadyalari kichik bo'lgani uchun, ularning saxiyligi unchalik ahamiyatga ega emas, deyishi mumkin. Lekin Xudoning nazdida aslo unday emas. Muqaddas Kitobda qurbonlik qilgan *kambag'al* qahramonlar

haqida yozilgan. Boylarning ochiq qo'l bo'lishlariga umid qilinadi, lekin Xudo ulardan *aslida* yaxshi ishlarga boy bo'lishni xohlaydi. Yetishmovchilik bo'lishiga qaramasdan berilgan xayr-ehsonlar Xudoni ulug'laydi.

Boshqa tomondan olib qaralganda, ba'zilar pulni ehtiyot qilmaslik, aslida, to'g'ri deb hisoblashadi. *Ha. . . Men haqiqatan ham pulga qiziqmayman. Siz pulni o'zingiz bilan qabringizga olib ketolmaysiz-ku!* Aksincha, moliyaviy jihatdan aniq fikrga ega bo'lmagan kishi, pul haqida qanday fikrda bo'lishimiz imonning asosiy ko'rsatkichi ekanligini yodda tutishlari kerak. Isoning Matto 25-bobidagi qobiliyatlar haqidagi mashhur masalida xo'jayin o'z boyligini boshqarishga ikkilangan xizmatkorni “yomon va yalqov” deb atagan (26-oyat) va masalning yakuniy qismi hammamiz uchun ogohlantirishdir.

Siz nafaqat o'zingizga ma'qul kelgani uchun, balki qurbonlik qilish orqali o'zingiz uchun samoda hech qachon yo'q bo'lmaydigan xazinani yig'ishingiz uchun ham qurbonlik qilishingiz kerak.

## **NEGA QURBONLIK QILISH KERAK? XUDONING ULUG'VORLIGI UCHUN**

### *QURBONLIK QILISH XUDONI QANDAY ULUG'LAYDI*

Qurbonlik qilishning uchinchi sababi, bu Xudoning ezguligi va ulug'vorligini namoyon qiladi.

Qanday qilib? Jon Payperdan bir qiyoslash olib ishlataman: Nega turmush o'rtog'imga gullar beraman? Men majburligimdan emas (agar unga shunday desam, uning yuz ifodasini tasavvur qilib ko'ring), balki *xohlaganim uchun*. Chunki u ajoyib! Chunki u maftunkor! Chunki men unga bo'lgan muhabbatimni qandaydir bir kichik yo'l bilan bo'lsa-da, izhor qilib uni xursand qilishni xohlayman.<sup>6</sup>

Xuddi shunday, qalbimiz Xudoning qanchalik ajoyibligidan minnatdorlikka to'lganda, qurbonlik qilish istagi bilan ham to'lib toshadi. U hamma narsani yaratgan Zotdir. Tog'ning musaffo havosida, yoqimli do'stlikda, qoyilmaqom qilib bajarilgan ishda, mazali taomda, biz bahramand bo'ladigan, har bir ezgulik – *Uning ezguligidir*. Bu narsalar esa, Uning qanchalik ezguligini ko'rsatadigan eng kichik ko'lankadir. Aslida, Uning ezguligi, shunchaki dunyoni yaratishdan iborat bo'libgina qolmay, kun kelib U bu dunyoni hukm qilishini ham o'z ichiga oladi. U shu qadar yaxshiki, hukm kunida fosh bo'lmaydigan birorta noto'g'ri ish, ma'lum bo'lmaydigan birorta gunoh qolmaydi. Bir kun kelib, Uning haqligi shunchalik ravshan bo'ladiki, “Barcha xalqlar kelib, [Uning oldida] sajda qiladilar“ (Vahiy 15:4).

Buning ustiga-ustak, bizning Xudoyimiz rahmshafqatga to'la. Biz gunohlarimiz tufayli ruhan o'lik bo'lsak ham, Xudo bizni “Masih bilan birga jonlantirdi” (Efesliklar 2:5). Biz hali Xudoning

dushmanlari bo'lgan paytimizda, Xudo O'zining aziz O'g'lini yuborib bizning o'rnimizga qurbon qildi (Rimliklar 5:8–10). Shunday qilganidan so'ng, u bizning ustimizga tinimsiz marhamatini yog'dirdi! Uning farzandlari bo'lish marhamati, Najotkorimiz orqali abadiy hayotga ega bo'lish marhamati, hamma narsani yaxshilikka xizmat qildirish marhamati (Rimliklar 8:28), ibodat, Xudoning mukammal Kalomi, masihiycha sevgi va jannat marhamati. Bu ro'yxatni uzundan-uzoq qilib davom ettirishim mumkin.

Xudoning behisob, ezgulikka boy jihatiga qanday munosib bo'la olamiz? Uning bu jihatini namoyon qilish va bu haqida masihiy birodar va opa-singillarimiz bilan suhbatlashishimiz orqali! Iso haqidagi xushxabarni bilmaganlar bilan baham ko'rish orqali! Bularni hammasini amalga oshirish uchun pulimizni ehson qilish orqali, chunki Iso juda ham ajoyibdir. Qurbonlik qilishimiz Xudoning ezguligi va ulug'vorligini mana shunday ko'z-ko'z etadi. Yanada ko'proq Injil atamasini qo'llab aytadigan bo'lsak, bizning pulimiz uni mana shunday *ulug'laydi*. Qizi uchun million dollarlik to'yni bajonidil uyushtirgan oila, qiziga bo'lgan sevgisini, boyligining cheksizligi orqali ko'z-ko'z etadi. Masihiy kishi o'zining moddiy boyligini xursandchilik bilan qurbon qilish va Undan qabul qilgan cheksiz ruhiy boyligi orqali, Isoga bo'lgan sevgisini ko'rsatadi.

## *QURBONLIK BU ABADIY XAZINA UCHUN SARMOYA*

Qurbonlik qilish Xudoning ulug'vorligini namoyon qiladi va shunday ekan, moddiy qurbonlik qilish bilan abadiy xazinaga ega bo'lasiz. Bu dunyo va undagi narsalar o'tkinchi, biroq bu dunyodagi jonlar va, eng muhimi, Xudoning ezguligi va ulug'vorligi haqida so'zlaydigan hayotlarimiz hikoyasi abadiydir. Jannat Xudoning abadiy tantanasidir, chunki yer yuzida sodir bo'lgan barcha voqealarga nazar tashlar ekanmiz, bu Yaratuvchimizning qudrati, adolati, rahm-shafqati, sevgisi va mehribonligidagi ulug'vorligini mukammal tarzda ochib berganiga guvoh bo'lamiz (Vahiy 15:4). Qurbonlik berish Xudoning ulug'vorligini namoyon qiladi va u boqiydir.

Har gal qurbonlik bera turib, shu pulni sarflashingiz mumkin bo'lgan har qanday narsadan ko'ra, Xudo yaxshiroq ekanligini ta'kidlayotgan bo'lasiz. Ba'zida qurbonlik berish uchun ozgina imon kerak bo'ladi. Boshqa paytlarda esa o'sha pulni boshqa narsaga sarflash vasvasasiga tushasiz va uni qurbonlikka berish uchun sizdan kuchli imon talab etiladi. Agar qurbonlik qilish imonni talab qilsa, Xudoning loyqligini harakatingiz bilan ta'kidlashingiz yanada kuchliroq, shunday emasmi? Ibroniylarga 11:6 da shunday deyilgan: "Imonga ega bo'lmasdan esa Xudoga ma'qul bo'lishning imkoni yo'q." Moddiy bitimni doimiy qadr-qimmatga aylantiradigan narsa bu sizning imoningizdir.



Sizning qurbonligingiz shunday qila oladimi? Bu odamlar nazdida ancha yaxshi ko'rinadigan ishmi? Yoki hamma narsani Xudoning va'dalariga tavakkal qilayotganingiz uchun, omma oldida aqldan ozgan va ahmoqday ko'rinyapsizmi? Xudoning va'dalariga tavakkal qilib hammasini Unga topshiring! Chunki bundanda osoyishta joy yo'q.

### *MOBODO QURBONLIK QILISHNI XOHLAMASAMCHI?*

Albatta, ba'zan qurbonlik qilganimizdan xursand bo'lmaymiz. Xo'sh, unda nima qilish kerak? Avvaliga, jahlingiz chiqishi mumkin. Bu eng noto'g'ri munosabat. Bu tarzda qurbonlik qilish, Xudoni yolg'onchi qilib qo'yadi. G'azab bilan qurbonlik qilish, Xudoni, pulingizni ishlatishning yaxshiroq yo'li bo'lsa-da, uni talab qiladigan xasis xo'jayinga o'xshatib qo'yadi.

Ikkinchidan, pulni ehson qilmasdan, uni o'z muhtojliklaringiz uchun *sarflashingiz* mumkin. Bu yaxshiroq, lekin saxiylik qalbimizni bu dunyoning quruq va'dalaridan qutqarmaydi.

Yoki uchinchidan, qurbonlik berishingiz mumkin. Ya'ni majburan emas, balki imon bilan, ichingizda nima kechayotgan bo'lsa ham, qurbonlik berish yaxshi ekanligiga ishonib berasiz. Qurbonlik berish muntazam va odatiy holga aylangani sayin, qalbingiz xazinangizga ergashadi va quvonchga to'lasiz.

Aynan shu haqiqat menga qurbonlik qilish quvonchini birinchi bo'lib ochib berdi. Birinchi

marta ishga kirganimda, jamoatinga qurbonlik berdim, lekin to'g'risini aytsam, mening bu ehsonim mamnuniyat bilan emas, balki tushunmasdan berilgan qurbonlik edi. Keyinchalik esa qurbonlikka moliyaviy bitim sifatida emas, balki ko'proq Najotkorimning ulug'vorligi va ezguligini ko'rsatish imkoniyati sifatida qaray boshladim. Bu dunyo uchun qadrli bo'lgan narsani masxara qilish qanchalik maroqli ekanligini, uni bera boshlaganim sayin tushuna boshladim. Men Xudoning va'dalari yordamida haqiqiy tavakkal qilish quvonchini tushunib yetdim. Undan tashqari saxovatli bo'lish quvonchini tushuna boshladim. Mana shunday quvonchni siz ham kashf eting!

Qalbingiz va mukofotingiz uchun bering. Siz Xudoni ulug'lash uchun yaratilgansiz. Aynan shuning uchun qurbonlik bering. Endi, 18-sahifada nima uchun qurbonlik qilishingiz haqidagi ro'yxatingizga yana bir bor nazar soling. Ushbu uchta bo'limni o'qib chiqqach, ulardan birortasini o'zgartirgan bo'larmidingiz? Qurbonlik qilish uchun sanab o'tilgan qaysi sabablar haqida o'ylab olishingiz uchun vaqt kerak?

Lekin, albatta, *nima uchun* qurbonlik qilishim kerakligini fahmlash - bu faqatgina boshlanishdir. Ushbu sabablarni qayerda va qanday qilib amalda qo'llashimiz mumkin? Bu keyingi ikki bo'limning mavzusi.

## **QAYERGA QURBONLIK QILISH KERAK? SIZNING MAHALLIY JAMOATINGIZ VA XUDONING REJALARI**

*NEGA MAHALLIY JAMOATIMGA QURBONLIK QILISHIM KERAK?*

Hozirgacha ushbu risolada Xudoning maqsadlari uchun xayr-ehson qilish haqida umumiy tarzda muhokama qildik, lekin risolaning muqovasidagi maxsus savol haqida gap yuritmadik: Nima uchun *jamoatimga* qurbonlik qilishim kerak?

Bunday olib qarajak, masihiylarning o'z mahalliy jamoatlariga qurbonlik qilish mas'uliyati haqida Yangi Ahdda juda ko'p gapirilgan. Pavlus shunday deb yozadi: "Rabbiy ham Xushxabarni voizlik qiluvchilarga bu mehnatdan kun kechirishlarini buyurgan" (1-Korinfliklar 9:14). Bu va'z eshitganlarga taalluqli bo'lmasa yana kimga qaratilgan bo'lishi mumkin? Xuddi shunday, Galatyaliklarga 6:6 da u shunday deb yozadi: "So'zdan ta'lim olayotgan odam ta'lim beruvchi bilan har qanday ezgulikni baham ko'rsin." Jamoatingizda Kalomdan ta'lim olganmisiz? Unday bo'lsa, bu sizning burchingizdir. Yoki 1-Timotiyya 5:17-18 oyatlarida mahalliy jamoatdagi o'z voiziga pul to'lash to'g'risidagi ko'rsatma haqida o'ylab ko'ring. Agar jamoat a'zolari bo'lmasa, bu pul qayerdan keladi?

Yaqqol ko'rinib turibdiki (shubhasiz), Xudo jamoatimizga qurbonlik qilishimizni buyuradi.

Albatta, Uning barcha amrlarida bo'lgani kabi, Xudo, biz majburan emas, balki o'z xohishimiz bilan berishimizni istaydi - chunki biz Uning loyiqligiga va va'dalariga chindan ishonamiz. Shu nuqtai nazardan, sizga xayr-ehsoningizning aksariyat qismi (g'ayrioddiy holatlar bundan mustasno) mahalliy jamoatingizga sarflanishi kerakligi haqidagi to'rtta sababni keltiraman.

### **1-SABAB: MAHALLIY JAMOAT SIZGA TA'LIM BERADI**

Biroz oldin ko'rib guvohi bo'lganimizdek, Xudo o'qituvchilarga maosh to'lash uchun mas'uliyatni ta'limotni qabul qiluvchilar zimmasiga – ya'ni jamoatga yuklaydi. Jamoatingizda Muqaddas Kitobdan ta'lim olish qimmatga tushadi. Oliy darajadagi ta'limga pul sarflayapsizmi? Qalbingiz (ruhingiz) uchun bundan yaxshiroq yana qanday sarmoya qilishingiz mumkin?

### **2-SABAB: MAHALLIY JAMOAT USTUNLIKKA EGA**

Benjamin Franklinning mashhur bir gapi bor, “Bu dunyoda soliq va o'lim haq”. Agar u masihiy bo'lganida, uchinchisini ham tilga olgan bo'lardi: mahalliy jamoat. Axir, boshqa hech bir muassasada Isoning abadiylik haqidagi va'dasi yo'q: “Men mana shu tosh ustida O'z jamoatimni quraman va do'zaxning darvozalari uni yenga olmaydi” (Matto 16:18). Bu xuddi Xudo qulog'ingizga 1890 yilda “avtomobilga sarmoya kiriting” yoki 1990 yilda

“Internetga sarmoya kiriting” deb shivirlagani kabidir. Matto kitobining 16-bobida Iso havoriylarga shunday degan: “Jamoatga sarmoya kiritinglar; u behuda ketmaydi, abadiy qoladi.” Iso *har bir* mahalliy jamoat abadiy qolishiga va'da bermagan, lekin agar bugungi kunda abadiy boylik olib keladigan biror narsaga sarmoya kiritmoqchi bo'lsangiz, mahalliy jamoatday o'ziga boshqacha jalb etadigan narsani topolmaysiz.

### **3-SABAB: MAHALLIY JAMOAT MUHIM AHAMIYATGA EGA**

Efesliklarga 3:10 da aytilishicha, mahalliy jamoat, Xudoning ulug'vor donoligini osmon ostidagi barcha mavjudotlarga oshkor qilish uchun Uning buyuk rejasining eng muhim jihatidir. Havoriylarga 20:28 da aytilishicha, Xudo jamoatni “O'z qoni bilan” sotib olgan. Xudo jamoatingiz haqida qattiq qayg'uradi! Shuning uchun, mahalliy jamoat, ehtimol, ko'pchiligimiz fahmlay olishimizdan-da ko'proq ahamiyatga egadir. Juda ko'p turli masihiy ruhoniylar sizning qurbonligingiz uchun raqobatlashayotgan bo'lishlari ehtimoldan yiroq emas. Ular bilan solishtirganda, sizning mahalliy jamoatingiz zerikarli va ko'rimsiz bo'lishi mumkin. Ammo biz “muhim” va “hayratga soluvchi” g'oyalarimizni Muqaddas Kitobdagi Xudoning ustuvor Kalomiga muvofiqlashtirishimiz kerak. Shunday qilganimizda, mahalliy jamoatda buyuk kuch va shon-shuhratni ko'ramiz.

#### **4-SABAB: MAHALLIY JAMOAT DONODIR**

Jamiyatimizda yashar ekanmiz, ko'pincha bizga hech kim pulimni qanday sarflashni o'rgatishga haqi yo'q deb o'ylaymiz. Lekin bu masihiycha yondashuv emas, to'g'rimi? Masihiy bo'lib, siz hamma narsani Rabbimiz Iso Masihning hokimiyatiga topshirdingiz. Uning hokimiyatiga bo'ysunishning bir qismi mahalliy jamoatingizning hokimiyatiga bo'ysunish hisoblanadi (Ibroniylar 13:17). Jamoatingizga qurbonlik qilganingizda, siz Iso uchun pulingizni qanday sarmoya qilish to'g'risida qaroringizni mahalliy jamoatingiz va uning rahbarlariga topshirayotgan bo'lasiz. Jamoatimdan ko'ra yaxshiroq bilaman, degan fikr, xoh axloqingiz, xoh pulingiz bilan bo'lsin, Injildagi masihiylikka zid fikrdir.

#### *JAMOATIMGA PULIMNI ISHONMASAM-CHI?*

Ehtimol, ushbu risolani o'qiyotganingizda, *lekin siz mening jamoatimni bilmaysiz deb o'ylayotgandirsiz! Ular qanchalik .....*  
*(bo'sh joyni to'ldiring: landavur, dunyoviy, besamara, ochko'z va hokazoliklarini) bilmaysiz!*

Agar bunga e'tiroz bildirsangiz, menda bunga juda oddiy javob bor: Agar pulingizni jamoatingizga ishona olmasangiz, o'zingizga qanday qilib ishonasiz? Moliyaviy va ruhiy voqeliklar yonmayon yuradi. Isoning so'zlarini eslang: "sizning xazinangiz qayerda bo'lsa, yuragingiz ham o'sha yerda bo'ladi" (Matto 6:21).

Albatta, jamoatingizga ishonish, ularning har bir tiyinni xohlaganlaricha sarflashlariga rozi ekanligingizni anglatmaydi. Ehtimol, siz ular xodimlarga biroz kamroq va xizmatlarga biroz ko'proq pul sarflashlarini xohlarsiz; ehtimol, siz yangicha ta'mirlashga sarflangan pul eng oqilona sarmoya emas deb o'ylarsiz. Men buni tushunaman. Bunday vaziyatlarda uchta narsani yodda tuting:

- 1. Hech kim mukammal emas.** Birja qimmatbaho qog'ozlari to'plamida g'oliblar va mag'lublar bo'lgani kabi, sizning jamoatingiz ham oxirgi hisob-kitobda eng to'g'ri va diniy sarmoya bo'lmagan narsalarga pul sarflaydi. Hechqisi yo'q. Jamoat yetakchilari tomonidan qilingan bir nechta budjetga aloqador xatolarning borligi, imkoniyatingiz bo'la turib sizni qurbonlik qilmaslik mas'uliyatidan xalos etmaydi.
- 2. Ishonch talab etiladi.** Agar siz jamoatingizni ishonchli deb bilsangiz, unga ishoning. Ba'zan jamoatingiz qilayotgan qandaydir ish sizga ma'qul kelmasligi mumkin, lekin sizning munosabatingiz ishonchga asoslangan bo'lishi kerak. Agar jamoat yetakchilari qilgan xatti-harakatlari orqali sizda ishonchsizlikni paydo qilishgan bo'lsa, siz ishona oladigan boshqa jamoat va yetakchilarni topishingiz kerak.

### **3. Xavotirlaringiz haqida gaplashib oling.**

Agar jamoatingiz o'z pulini sarflash usullari sizga ma'qul kelmasa, jamoatingizdagi biror bir yekatchi bilan bu masala haqida gaplashib oling. Butun jamoatga katta shov-shuv qilmang, balki jamoatingiz yetakchilariga ular qayerda xato qilayotganliklarini kamtarona xizmatiningiz bilan ko'rsating.

Hozirgacha biz *nima uchun va qayerga berish* kerakligi haqidagi savollarga javob berdik. Yana bir muhim savol qoldi: *qanday qilib*.

### **QAY USULDA QURBONLIK QILISH MUMKIN?**

*PAVLUSNING QAY USULDA QURBONLIK QILISH BO'YICHA KO'RSATMALARI*

Ko'pchilik uchun “qay tarzda qurbonlik qilish kerak” degan savol uncha muhim emasdek tuyulishi mumkin. “Agar qurbonlik qilmoqchi bo'lsam, shunchaki hamyonimni ochaman-da beraman, shunday emasmi? Buning qiyin joyi yo'q.” Lekin bu savol haqida chuqurroq fikr yuritmasak, kattagina quvonchni qo'ldan boy bergan bo'lamiz. Masalan, 1-Korinfliklarga 16:2 ga nazar tashlaylik:

Haftaning birinchi kunida, sizlarning har biringiz o'z imkoni bo'yicha ehsonini bir



chetga olib qo'yib, o'zida saqlasin, toki men kelganimda, bularni yig'ishga zarurat bo'lmasin.

Ushbu oyatda qanday qurbonlik qilishimiz kerakligi haqida ikkita ma'no bor:

*Natija №1: Qurbonligingizni rejalashtiring.* Biz ko'pincha to'sattdan qaror qilishni (tabiiy, oz'-o'zidan paydo bo'lish) ruhan yetuklik sifatida ulug'laymiz, lekin ushbu oyatda Pavlus buni nazarda tutmagan. Balki u ma'lum bir darajadagi rejalashtirishni ya'ni, har hafta "ehsonini bir chetga olib qo'yish" ni maslahat beradi. Xuddi shuningdek, 2-Korinfliklarga 9:7 da Pavlus "Har kim qayg'u yoki majburiyat bilan emas, balki yurak xohishi bilan bersin" deb yozadi. Jamoatda hamdu sano aytayotganingizda Muqaddas Ruh qanchalik faol ishlasa, o'z daromadingizni hisoblayotgan paytingizda ham shunchalik faol ishlaydi! Qancha miqdorda qurbonlik qilishingiz kerakligini belgilab olish shaxsiy budjetni tuzishning asosiy tarkibiy qismi bo'lishi kerak - va shu bilan birga bu budjetga ega bo'lish uchun ustuvor sabab bo'lishi kerak.

Shaxsiy budjetingizni tuzib daromadingizning har bir dollari Xudoning maqsadlariga qanday sarflanishini asosan o'zingiz hal qilasiz. Bir miqdor pulni oilangizga sarflashingiz, Xudoning oilaga g'amxo'rlik qilish haqidagi buyrug'iga itoat etishingizga ko'maklashadi (1-Timotiy 5:8). Yana qanchadir miqdordagi pulingizni soliqlarga

sarflashingiz, hukumatga itoat qilishingizga yordam beradi (Rimliklar 13:7). Pulingizni Xudoning maqsadlari uchun sarflashning eng yaxshi usullaridan biri bu – mahalliy jamoatdagi Uning xizmatiga berishni rejalashtirishingizdir (Galatiyaliklar 6:6). Lekin albatta, qurbonligingizni rejalashtirish, uning qanchasini berishga ahd qildingiz degani, va bu esa 1-Korinfliklarga 16:2 ning ikkinchi ma'nosiga to'g'ri keladi.

*Natija №2: Daromadingizga mos ravishda qurbonlik qiling.* Pavlusning har bir kishini “sizlarning har biringiz o'z imkoni bo'yicha” berishga undaganiga e'tibor bering. . Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar kam pul topsangiz, ozginasini qurbonlikka bering. Agar ko'p pul topsangiz, ko'prog'ini qurbonlikka bering. Ko'plab masihiylar va ba'zi jamoatlardagi barcha masxablar, Masihga bo'lgan sadoqatimiz uchun ishlab topgan pulimizning 10 foizini (ushrni) berishimiz to'g'ri deb hisoblashadi. Axir, Xudo Eski Ahdda O'z xalqidan shuni talab qilgan-ku (Malaxi 3:10). Boshqa masihiylar, ushr berish - hayvonlarni qurbon qilishga o'xshab, Eski Ahdda Xudoga topinishning bir qismi bo'lgan deb ta'kidlashadi, hozirda esa bu amal Masihda ado etilgandir deb ishonishadi (Yuhanno 2:20–21).

Men bu masalaga shu yerda barham berishni ko'zlayotganim yuq. Ammo ushr haqidagi fikringizdan qat'iy nazar, sizning mas'uliyatingiz 10 foiz bilan cheklanib qolmasligini ilgari suraman. Ishlab topgan pulingizning 10 foizini berish ajoyib boshlang'ich

nuqta bo'lishi mumkin, lekin bu Xudo talab qilayotgan yagona narsa deb hisoblamasligimiz kerak. Hattoki Eski Ahdda ham odamlardan ushrlaridan-da ko'prog'ini berishlari kutilgan (Malaxi 3:8). Biz esa Masih orqali ular orzu qilgan narsalarga erishdik. Biz qurbonlikka majburiyat sifatida emas balki imkoniyat sifatida qarashimiz kerak, va hayotimiz mobaynida Isoga xizmat qilishimiz mumkin bo'lgan turli imkoniyatlarni hisobga olgan holda oqilona ko'rinadigan darajada berishga intilishimiz kerak.

Quyida qancha qurbonlik qilayotganingiz haqida o'zingizdan so'rashingiz kerak bo'lgan to'rtta savol:

- 1. Yuragimni o'zgartiradigan darajada qurbonlik qilyapmanmi?** Agar qurbonlik qilishning sabablaridan biri o'zimizni jannat sari yetaklash bo'lsa, mening qilayotgan qurbonligim buni amalga oshirish uchun sezilarli darajada yetarlimi?
- 2. Yana kimdir men qancha miqdorda qurbonlik qilayotganimdan xabardormi?** Maqtanchoqlik bilan berish haqida gaplashishdan o'zimizni tiyishimiz kerak (Matto 6:3). Ammo, pul haqida emas balki boshqa qiyinchiliklar (masalan, shahvat yoki qo'rquv) haqida kamtarlik bilan maslahat so'rasak, ga'lati emasmi? Axir, Iso ko'pincha boshqa mavzularga qaraganda ko'proq pul haqida gapirgan-ku.

- 3. Jamoatimga har doim berishim mumkin bo'lgan daromadimning eng kam miqdori qancha?** Yuqorida aytib o'tganimdek, 10 foiz – bu ajoyib boshlang'ich nuqtasi, ammo sodiq bo'lish uchun ko'pchiligimiz bundan ham ko'proq qurbonlik qilishimiz kerak.
- 4. Hayotimning boshqa jabhalaridagi sadoqatimga putur yetkazadigan darajada ko'p beryapmanmi?** Masalan, jamoatimga juda katta miqdorda qurbonlik qilamanu, lekin yonimdagi och qo'shnimga kelganda ziqnaman. Boshqa tarafdin, agar juda kam yoki umuman bermayotgan bo'lsam, ehtimol, ko'proq qurbonlik qilishni o'ylab ko'rishim kerak.

#### *ROSTDAN HAM BERISHIM SHARTMI?*

Ko'pincha ich-ichimizda qurbonlik qilishdan noliymiz. Bu noto'g'ri yondashuvligini bilamiz, lekin nima ham qila olardik, bu bor narsa. Jamoatimdagilarga mana shunday yondashuv bilan muammo bo'lsa unda ularda minnatdorchilik muammosi borligini tez-tez eslatib turaman. Biz Masih bizga bergan inoyatlarini ko'z-ko'z qilish uchun qurbonlik qilamiz (2-Korinfliklar 8:8–9). Biz Najotkorimizning nomini ulug'lash uchun beramiz (2-Korinfliklar 9:11–12). Uni sevganimiz uchun qurbonlik qilamiz (2-Korinfliklar 9:7).

Xudo uchun mamnuniyat bilan qurbonlik qilolmaganimiz uchun uni yetarli darajada

sevmasligimizni bilganimizda, bu quyidagi ikki narsadan birini anglatadi. Birinchidan, biz Masih xochining ulug'vorligini, qanchalik kechirilganligimizni, bu Masihga qanchalik qimmatga tushganligini va biz qanchalik noloyiq ekanligimizni unutgan bo'lishimiz mumkin. Ikkinchidan, biz avval boshidan hech qachon kechirilmagan bo'lishimiz va hali ham gunoh botqog'iga sho'ng'ib ketgan bo'lishimiz mumkin. Chunki Iso aytganiday, agar ko'p kechirilgan bo'lsak, ko'p sevamiz (Luqo 7:47).

Shunday ekan, qurbonlik qilish masalasini majburiyat sifatida emas, balki yuragingiz nazoratchisi sifatida qabul qiling. Isoni sevasizmi? Unday bo'lsa birodar opa-singillar, chin yurakdan bering! Qurbonlik qilish inoyatini shakllantirishingiz orqali topishingiz mumkin bo'lgan quvonchga umidvor bo'ling (2-Korinfliklar 8:7). Boshqa tomondan, ushbu risolani tugata turib Isoga mamnuniyat bilan qurbonlik qilolmaganingiz uchun uni yetarli darajada sevmasligingizni anglab yetdingizmi? Agar shunday bo'lsa, menda yaxshi xabar bor, do'stim: bunga o'zgartirish kiritish mumkin! Xudo oldida bu gunohga iqror bo'ling. Tosh yuragingizdagi xayr-ehsoningiz Uning yaxshiligi va saxiyligi haqida sizga yolg'on gapirgan. Bu gunohni tan oling va faqat Isoning siz uchun qurbon bo'lgani bu gunohning jazosidan xalos

etishi mumkinligiga ishonung. Hayotning barcha jabhalarida unga ergashishni tanlab, gunohlaringizga iqror bo'ling, ishonung va tavba qiling. So'ng o'zingizda bor bo'lgan nuqsonlaringiz haqida ishonchli masihiy do'stingiz bilan gaplashing.

#### *XUDO MAMNUNIYAT BILAN BERUVCHINI SEVADI*

Xullas, buyuk Xudoyimiz va Najotkorimiz Iso Masihning mukammalligini namoyon etish uchun pulimizni qanday ishlatishimiz haqida birgalikda mulohaza yuritaylik. Bu esa xursandchilik chaqirig'idir! Mahalliy jamoatingizga qurbonlik qiling va yuragingiz bu dunyoning arzon "xazinalari" ga parvo ham qilmayotganiga guvoh bo'ling. Jamoatingizga qurbonlik qiling va samoda sizga muntazir bo'ladigan mukofotni intiqlik bilan kuting. Jamoatingizga qurbonlik qiling va Isoning ulug'vorligi va ajabtovurligi namoyon etish uchun pulingiz ortidan keladigan quvonchga ega bo'ling. Berishingiz shart bo'lgani uchun emas, balki xohlaganingiz uchun mamnuniyat bilan bering, chunki Xudo sizga taqdim etadigan narsa pulingiz sotib oladigan narsalardan ancha yaxshi ekanligiga ishonch hosil qilasiz.

#### **BOSHQA SAVOLLAR**

Quyida qurbonlik qilish haqida tez-tez so'raladigan savollarga qisqacha javoblar keltirilgan.

## *1. INTERNET ORQALI QURBONLIK QILISHIM KERAKMI?*

Onlayn berishning ba'zi shakllari (masalan, bank hisobingizdan muntazam ravishda pul yechib olishni o'rnatish) 1-Korinfliklarga 16:2 da Pavlus undagan qurbonlik qilishning kelishilgan yoki rejali uslubini yengillashtiradi. Ammo bu rejalashtirilgan, avtomatik qurbonlik qilish shunchaki "nazardan va xayoldan chetda" qolishiga yo'l qo'ymang. Boshqa usullar (masalan, ma'lum bir telefon raqamiga dollar miqdorini SMS orqali yuborish) ko'pincha hissiyotga tayanib, o'ylamay qurbonlik qilishga undaydi, bu Pavlusning 1-Korinfliklarga 16-bobida aytganlariga mutlaqo ziddir. Onlayn ushr berish bizni har hafta jamoat yig'ilishlaridagi ushr berishdan odatidan mosuvo qiladi - ammo Yangi Ahdda umumiy jamoat yig'ilishlarida ushr berishning aniq namunasi yo'qligi tufayli, ko'pchilik buni maqbul deb topishadi.

## *2. JAMOATDAN TASHQARIDAGI HOLATLAR UCHUN HAM QURBONLIK QILISHIM KERAKMI?*

Pavlusning Galatyaliklarga 6:6, 1-Korinfliklarga 9:14 va 1-Timotiyga 5:17 dagi ko'rsatmasi, olayotgan ta'limotimizni qo'llab-quvvatlash uchun jamoatimizga ehson qilish birinchi o'rinda bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, agar sizda imkoniyat va xohish bo'lsa

Muqaddas Bitiklar boshqa xizmatlarga qurbonlik qilishni maqullaydi.

Keling, ushbu qo'shimcha qurbonlik qilish to'g'risida bir nechta ko'rsatmalarni keltirib o'tay. Birinchidan, boshqa xizmatlar uchun qancha qurbonlik qilmoqchi bo'lsangiz ham, avval o'z mahalliy jamoatingizga doimiy beradigan oylik yoki haftalik ushr va qurbonliklarni bergan bo'lishingiz kerak. Ikkinchidan, cho'pon yoki o'zingiz ishonadigan boshqa bir yetuk imonlidan siz yordam bermoqchi bo'lgan xizmat haqida so'rang, chunki bu xizmat jamoatingiz yetakchilari tomonidan jamoat budjetining bir qismi sifatida baholanmaydi. Nihoyat (so'ngida), sizning barcha shaxsiy qurbonligingiz faqatgina masihiy tashkilotlariga berilishi shart degani emas. Ammo shuni ham esdan chiqarmasligimiz kerakki, dunyoviyalar ham boshqa munosib tashkilotlarga pul ajratayotgan bir paytda, xushxabar ishiga faqatgina masihiylar pul ajratishadi.

### 3. AGAR QARZIM BO'LSA, QURBONLIK QILISHIM KERAKMI?

Bu savolga qisqa javobim: vaziyatga bog'liq. Meni sizga bera oladigan eng muhim maslahatim - bu qarorni yolg'iz qabul qilmang; o'zingiz ishonadigan biron bir masihiy birodar bilan vaziyatingiz haqida maslahatlashing (Hikmatlar 15:22).



Bu yerda yodda tutilishi kerak bo'lgan bir nechta tamoyillar mavjud.

- Masihilar o'z qarzlarni vijdonan qaytarishga majburdirlar (Sanolar 36:21).
- Qarz *har doim* qullikning bir ko'rinishidir (Hikmatlar 22:7). “Yaxshi” va “yomon” qarz degan narsa yo'q. Lekin bu qullik Masihga xizmat qilish qobiliyatimizni qanchalik cheklashi, kelishilgan to'lovlarni to'lay olish yoki ololmasligimizga bog'liq.
- Hayotdan maqsad – qarzdan xalos bo'lish *emas* balki Iso Masihga xizmat qilishdir va ba'zida esa qarz bu maqsadni amalga oshirishning oqilona yo'lidir (oilangizni ta'minlash va yashash uchun qulay sharoiti bo'lgan uy sotib olishga yordam sifatida).

Umuman olganda, agar sizning daromadingiz qarzingizni to'lashga bimalol yetadigan bo'lsa, u holda daromadingizdan qurbonlik ham ajratishingiz kerak. Agar daromadingiz faqat asosiy muhtojliklaringiz va qarzlaringizni to'lashga yetadigan bo'lsa, u holda siz noqulay ahvolda qolasiz. Aniqrog'i, bunday vaziyatda jamoatga qurbonlik qilib, Xudoning qarzlarni to'lash yoki o'z muhtojliklaringiz haqida qayg'urish haqidagi aniq amrlariga bo'ysunmayotgan bo'lib qolasiz. Bu vaziyatda qarzingizdan qutulib olguningizcha,

vaqtincha jamoatga qurbonlik qilmay turishingiz kerak bo'ladi (1-Fessalonikaliklar 4:12; 1-Timotiy 5:8). Bunday holda, qarzingizning og'irligini yengillashtirish uchun kreditorlar bilan hamkorlik qilib (Hikmatlar 6:3), qo'shimcha daromad topib, xarajatlaringizni qisqartirish va haqiqiy "ehtiyoj" qanday bo'lishi kerakligi haqidagi fikringizni o'zgartirish orqali bu vaziyatdan chiqishingizni maslahat bergan bo'lardim.

#### *4. QANDAY QILIB QURBONLIK QILISH VA JAMG'ARMANI BIR MAROMDA USHLAB QOLAMAN?*

Men bir voqea eshitganman. Menga aytishlaricha, yaxshi maosh oladigan bir jamoata'zosi juda kam mablag'ga yashagan, hech qancha pul tejamagan va katta miqdorda qurbonlik qilgan. Uning xushxabarga bo'lgan shijoati menga juda yoqdi! Lekin men unga, bunaqa hayot tarzida yashash Xudoga noto'g'ri suyanish ekanligini aytdim. Xudoning kelajakdagi odatiy beradigan rizqi Uning hozirgi kundagi berayotgan rizqidir. Bu haqiqatni nazarga ilmasdan bor budimizni berib yuborsak, uning odatiy beradigan rizqini nazarga ilmagan bo'lamiz. Bu esa imon emas, balki taxmindir. Yer yuzida ko'p odamlar o'z ehtiyojlaridan orttirisholmaydi va Xudo ularning kelajakdagi muhtojliklarini qondiradi. Lekin agar Xudo sizga asosiy ehtiyojlaringizni qondirish, jamoatingizga qurbonlik qilish va orttirib qoldirishga yetarli

miqdorda pul bergan bo'lsa, Muqaddas Kitob uning bir qismini tejashingizga undagan bo'lar edi (Hikmatlar 21:20; 1-Fessalonikaliklar 4:12).

Sizning qancha miqdorda pul tejashingiz ko'pgina omillarga bog'liq. Agar kelajakdagi ehtiyojlaringiz haqida aniq bilmasangiz, daromadingizdan sezilarli va mos miqdorni tanlab olib qurbonlikka berib, qolganini tejashingiz mumkin. Hayotning ma'lum bir davrida ko'p odamlar o'zlarining kelajakdagi ehtiyojlarini yaxshi fahmlashadi, shunday ekan siz ham sarf-xarajatlaringizga to'g'ri pul sarflab, pul jamg'arishni boshlang. Shuni yodda tuting, ko'p masihiylar adashib, Xudoga emas, balki o'z jamg'armalariga umid bog'laydilar; qancha tejash haqida qaror qabul qilganingizda, bunday vasvasadan boxabar bo'ling (Matto 6:25–34).

#### *5. SARF-XARAJAT VA QURBONLIK QILISHNI QANDAY QILIB BIR MAROMDA USHLAB QOLAMAN?*

Aytaylik, jamoatingizga to'g'ri keladigan miqdorni berib, asosiy ehtiyojlaringizni qondirish uchun yetarli pulingiz bor va siz o'zingizga kerak bo'lgan narsani tejayapsiz. Shunga qaramay, Xudo sizni yanada ko'proq pul bilan ta'minladi. Buning uchun Xudoga hamdu sanolar bo'lsin! Yana qanchasini qurbonlikka berasiz? Xudo sizga ishonib topshirgan barcha pullar uchun bitta maqsad borligini tushunganingizda, bu savolga to'g'ri javob bera olasiz: ya'ni Uning ulug'vorligini ko'z-ko'z qilish

uchun (1-Korinfliklar 10:31). Siz pul ishlatib, uning saxovatidan bahramand bo'lasiz (1-Timotiy 6:17), hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish uchun uning amrlariga bo'ysunish (1-Fessalonikaliklar 4:12), hamda qurbonlik qilib Uni ulug'laysiz. Siz mana bu savolga javob bering: Sizning hozirgi budjetingiz Xudoning ezguligi va ulug'vorligini namoyish qilish uchun zaxirangizni barcha imkoniyatlar orasida taqsimlashning eng yaxshi usulimi yoki yo'qmi?

#### 6. QANDAY QILIB XUDONI ULUG'LAYDIGAN TARZDA QURBONLIK QILISHNI BOSHLASHIM MUMKIN?

Ajoyib savol! Sizga shunday javob beraman:

Birinchidan, keyingi maoshdan boshlab, uning 10 foizini jamoatingizga bering.

Ikkinchidan, kelgusi bir necha hafta ichida, agar sizda xarajatlar rejasi bo'lmasa uni tuzish uchun biroz vaqt ajrating (keyingi ikki sahifadagi misolga qarang). *Har bir* element uchun bu pullar Xudoning maqsadlariga erishishda qanday xizmat qilishini tushunishga harakat qiling va budjetingizni ko'zdan kechirib, 10 foiz, qurbonlik qilish uchun to'g'ri miqdormi yoki yo'qmi, bu haqida o'ylab ko'ring.

Uchinchidan, imoni kuchli masihiy do'stingiz bilan o'tirib xulosalaringizni muhokama qiling.

To'rtinchidan, bu ishni yiliga bir marta takrorlab turing.



## Budjet namunasi

### QANDAY QILIB HAR BIR NARSA XUDOGA SHON-SHARAF KELTIRISHIGA MISOLLAR

Daromad	\$	Ish sizning ehtiyojlaringizni qondirish va boshqalarga saxovatli bo'lish uchun berilgan (Efesliklarga 4:28).
Soliqlar	\$	Masihga itoatkor bo'lish uchun hokimiyatga bo'ysunish kerak (Rimliklarga 13:7).
Qurbonlik		Efesliklarga 4:28
Mahalliy Jamoat	\$	Olayotgan ta'limotimizni qo'llab-quvvatlash uchun qurbonlik qilishimiz kerak (Galatyaliklarga 6:6).
Missionerlik	\$	Missionerlarni "Xudo uchun ularni yo'lga munosib ravishda" qo'llab quvvatlang (3-Yuhanno 6-8).

Muruvvat xizmati	\$	Biz masihiy birodarlarimizni, keyin esa boshqalarning ehtiyojlarini qondirishimiz kerak (Galatiyaliklarga 6:10).
Uy-joy		1-Timotiyga 5:8 da keltirib o'tilganidek, uy-joy oilangizni ta'minlashga, o'z ehtiyojlarimizni qondirishga yordam beradi (1-Fessalonikaliklarga 4:12) va mehmondo'st bo'lishimizga sharoit yaratib beradi (Rimliklarga 12:13).
Ijara/Kredit	\$	
Mebel va uy jihozlari	\$	
Ta'mirlash	\$	
Tibbiy xizmat		
Shifokor / sug'urta	\$	Mustahkam sog'lik - bu Xudo bergan barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanishimizning bir qismi (Efesliklarga 5:16).
Sport zali	\$	Jismoniy tarbiya ma'lum bir ahamiyatga bo'lsada, ruhiy tarbiya ko'proq ahamiyatga ega (1-Timotiyga 4:8).
Telekommunikatsiya	\$	Bajarayotgan amallaringizni Masih uchun qilayotganingiz uchun zamonaviy vositalar ushbu amallaringizni yanada yaxshiroq bajarishingizga ko'maklashadi (Kolosaliklarga 3:23).

Transport vositasi	\$	Transport vositasi o'zingizning va oila a'zolaringizning ehtiyojlarini qondirishga sharoit yaratib beradi (2-Fessalonikaliklar 3:10).
Dam olish		
Ta'til	\$	Hikmatlar kitobi bizga vaqti-vaqti bilan dam olib turishimiz kerakligini eslatib turadi (Hikmatlar 23:4).
Tashqarida ovqatlanish	\$	Xudoning bizga bergan in'omlaridan bahramand bo'lib, Uning ezguligini sharaflash uchun restoranda tushlik qilish imkoniyatidan foydalaning (1-Timotiyya 4:4).
Ommaviy axborot vositalari	\$	Gunohdan holi ko'ngilxushlikni minnatdorchilik bilan qabul qilish, uni bergan Xudoni ulug'laydi (1-Timotiyya 6:17).
Shaxsiy		
Kiyim-kechak	\$	Biz asosiy ehtiyojlarimizdan qanoatlansak, Xudoni ulug'lagan bo'lamiz (1-Timotiyya 6:8).



Oziq-ovqat	\$	Oilangizni va o'zingizni oziqlantirish orqali har bir masihiyga berilgan asosiy amrni amalga oshirgan bo'lasiz (1-Timotiyga 5:8).
Uy anjomlari	\$	Uy tutish mehmondo'st bo'lishingizga imkon beradi (Rimliklarga 12:13).
Saxiylik		
Hadyalar	\$	Birinchi Timotiyga 6:18 bizni saxovatli hayot kechirishga chaqiradi.
O'zgacha saxiylik	\$	Saxiylik qilish uchun berilgan ba'zi imkoniyatlar kutilmaganda sodir bo'ladi (Luqo 6:30-31).
Jamg'arma	\$	Bugungi kundagi faoliyatimiz Xudoning kelajakdagi ta'minotining oddiy vositasi hisoblanadi (2-Fessalonikaliklarga 3:6-12).
Ajratilmagan	\$	Qayerga ishlatilishi aniqlanmagan pullar bizni boylik to'plashga undaydi (Yoqub 5:1-3).

## Izohlar

1. “Qurbonlik qilish AQSH 2015 Matbuot xabari,” Qurbonlik qilish instituti, 2015, 2020-yil 6-avgustda kirgan, <https://www.givinginstitute.org/page/GUSA2015Release> – [ingliz tili – “Giving USA 2015 Press Release,” The Giving Institute, 2015].
2. “2018-yil uchun xayriya statistikasining yakuniy ro‘yxati”, NP manbasi, 2020-yil 6-avgustda kirgan, <https://nonprofitssource.com/online-giving-statistics/> - [ingliz tili – “The Ultimate List of Charitable Giving Statistics for 2018”, NP source].
3. Pavlusning 2-Korinfliklarga 8–9- oyatlardagi qurbonlik qilish haqidagi uzun paragrafni muhokama qiling. Uning so‘roviga sabab bo‘lgan ehtiyojni zo‘rg‘a tilga olib o‘tadi. U Korinfliklar qurbonlik qilishga majbur emas ekanliklariga alohida urg‘u berib o‘tadi (8:8).
4. Keyinchalik, Xudoga ishonganimiz uchun, o‘zimizni xohlamagan bo‘lsak-da, qanday qilib qurbonlik qilish Xudoni ulug‘laydigan quvonchli va imkoniyatga asoslangan in‘om bo‘lishi mumkinligi haqida suhbatlashamiz.
5. Bu haqda ko‘proq ma‘lumot olish uchun siz *Kosti Xinning Xudo, ochko‘zlik va (Farovonlik) Xushxabar* kitobini o‘qishingiz mumkin

(Grand Rapids, MI: Zondervan, 2019). Kosti Xin - taniqli “shifokorlik in’omi”ga ega Benni Xinning jiyani va “farovonlik xushxabar” deb nomlanuvchi diniy e’tiqodning sobiq tarafdorlaridan biri.

6. Jon Payperning *Xudoga Chanqoqlik: Masihiycha gedonistining meditatsiyalari*, qayta nashr qilingan (Kolorado Springs, Kolorado: Multnoma Kitoblar, 2011), [ingliz tili – John Piper, *Desiring God: Meditations of a Christian Hedonist*, rev. ed. (Colorado Springs, CO: Multnomah Books, 2011)], 94.

## Muqaddas Kitobga Iqtiboslar

### *Chiqish*

36 ..... 27

### *Sanolar*

36:21 ..... 48

49:12 ..... 16

### *Hikmatlar*

6:3 ..... 49

15:22 ..... 47

21:20 ..... 50

22:7 ..... 48

23:4 ..... 55

23:4-5 ..... 20

### *Malaxi*

3:8 ..... 42

3:10 ..... 41

### *Matto*

6 ..... 21, 22, 25

6:3 ..... 42

6:20 ..... 25, 26

6:20-21 ..... 20

6:21 ..... 37

6:25-34 ..... 50

16:18 ..... 35

25:26 ..... 28

### *Mark*

12 ..... 27

### *Luqo*

6:30-31 ..... 56

7:47 ..... 44

### *Yuhanno*

2:20-21 ..... 41

### *Havoriylar*

20:28 ..... 36

### *Rimliklar*

5:8-10 ..... 30

8:28 ..... 30

12:13 ..... 54, 56

13:7 ..... 41, 53

### *1-Korinfliklar*

9:14 ..... 34, 46

10:31 ..... 51

13:3 ..... 15

15:19 ..... 21

16:2 ..... 39-40, 41, 46

### *2-Korinfliklar*

8 ..... 27

8:7 ..... 44

8:8 ..... 57

8:8-9 ..... 43

8-9 ..... 57

9:7 ..... 15, 16, 40, 43

9:7-8 ..... 11

9:11-12 ..... 43

*Galatiyaliklar*

6:6 .....34, 41, 46, 53

6:10 ..... 54

*Efesliklar*

2:5 ..... 29

3:10 ..... 36

4:28 ..... 53

5:16 ..... 54

*Filippiliklar*

4:11, 13 .....24-25

4:17 ..... 25

*Kolosaliklar*

3:23 ..... 54

*1-Fessalonikaliklar*

4:12 .....49, 50, 51, 54

*2-Fessalonikaliklar*

3:6-12..... 56

3:10 ..... 55

*1-Timotiy*

4:4 ..... 55

4:8 ..... 54

5:8 .....40, 49, 54, 56

5:17 ..... 46

5:17-18..... 34

6:8 ..... 55

6:17 ..... 51, 55

6:18 ..... 27, 56

*Ibroniylar*

11:6 ..... 31

13:17 ..... 37

*Yoqub*

5:1-3 ..... 56

*3-Yuhanno*

6-8 ..... 53

*Vahiy*

15:4 ..... 29, 31



# 9 Belgilar

SOG'LOM JAMOATLAR QURISH

## Sizning Jamoatingiz Sog'lommi?

*9Marks (9Belgilar) xizmati Xudoning ulug'vorligini sog'lom jamoatlar orqali xalqlarga namoyon etish uchun jamoat yetakchilarini Kalomiy qarash va amaliy resurslar bilan qurollantirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.*

Shu maqsadda biz jamoatlarga ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan to'qqizta sog'lom jamoat belgisida o'sishiga yordam berishni xohlaymiz:

1. Expositio va'z
2. Xushxabar ta'limoti (doktrinasi)
3. Yuqoridan tug'ilish va xushxabarchilikka doir Kalomiy tushuncha
4. Kalomga mos jamoat a'zligi
5. Kalomga mos jamoatdagi tartib-intizom
6. Shogirdlik va o'sish borasida Kalomiy qarash
7. Kalomga mos jamoat yetakchiligi
8. Ibadat amaliyotiga doir Kalomiy tushuncha
9. Elchilik xizmatiga doir Kalomiy tushuncha

9Marks (9Belgilar)da biz maqolalar, kitoblar, kitoblarga taqrizlar va onlayn jurnallar yozamiz. Biz jamoatlar Xudoning ulug'vorligini namoyon etishlari uchun ularni qurollantirish maqsadida konferensiyalarga mezbonlik qilamiz, suhbatlar yozib olamiz va boshqa har xil resurslarni tayyorlaymiz.

**40dan ortiq tillardagi** kontent uchun bizning veb sahifamizga tashrif buyuring va bizning bepul onlayn jurnalimizni qabul qilish uchun ro'yxatdan o'ting. Bizning boshqa tillardagi veb sahifalarimizning to'liq ro'yxatini quyidagi havola orqali ko'rishingiz mumkin:

<https://www.9marks.org/about/international-efforts/>

**uz.9marks.org**



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar Amerika Qo'shma Shtatlarida xayriya qilish har qachongidan ham ommalashgan bo'lsa, so'nggi bir necha o'n yillik ichida jamoatga beriladigan qurbonliklar sezilarli darajada kamaygan. Biroq, Muqaddas Kitob, ayniqsa, mahalliy jamoat manfaati uchun imonlilar qurbonlik berish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu kitobchada berilgan ma'lumotlar orqali Jeymi Dunlop, "Men nega jamoatimga qurbonlik berishim kerak?" degan savolga javob beradi. Shu bilan birga qurbonlik berish mahalliy jamoatga qanday ruhiy foyda keltirishini, Xudoning irodasini bajarishini hamda Uni ulug'lashi ochib beradi.

---

**Jamoatga doir Savollar** to'plami bu jamoat hayotiga doir ko'p uchraydigan savollarga javob berish orqali o'rtamiyona masihiylarni sog'lom va hamma uchun ochiq bo'lgan kalomiy ta'limot bilan ta'minlashga intiladi. Har bir qism sog'lom jamoat amaliyotini va unga bag'ishlanishni rivojlantirish maqsadida kalomiy javoblar va amaliy xulosalar taqdim etadi.

---

**Jeymi Dunlop** 2009 yildan beri "Kapitoliy Tepaligi" deb nomlangan baptist jamoatida cho'pon bo'lib ishlaydi. Undan oldin u yirik konsalting kompaniyasining bir biznes tarmog'ini boshqargan. U (Mark Dever bilan birga) "Yoqimli Jamoa" kitobining hammuallifi hamdir.